

## YANGI

## O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 62 (1123), 2024-yil 28-mart, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH PARLAMENTI DELEGATSIYALARINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-mart kuni AQSHning senator Stiven Deyns hamda Vakillar palatasi qo‘mitasi raisi, kongressmen Mayk Rojers boshchiligidagi delegatsiyalarini qabul qildi.



O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikda yuqori darajaga erishilgani, faol muloqotlar va o‘zaro tashriflar davom etayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yilning sentabr oyida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi birinchi sammiti hamda samarali ishlar hamkorlik uchrashuvlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo aloqalarni, shu jumladan, AQSH Kongressida faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha kokus ishini yuqori baholadi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi oshib bormoqda, 2023-yil yakunida u 30 foizga oshdi. O‘zbekiston bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan AQSH kompaniyalari soni ortmoqda. Misol tariqasida mamlakatimizda qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan “Air Products” kompaniyasining faoliyati qayd etildi.

Amerikalik qonun chiqaruvchilar vakillik qilayotgan Montana, Alabama, Vashington, Kaliforniya va Texas shtatlari bilan faol amaliy hamkorlikni davom ettirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Ta‘lim, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, tog‘-kon sanoati, “yashil” energetika, farmatsevtika, oziq-ovqat tarmog‘i va boshqa sohalar kooperatsiya uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida qayd etildi.

AQSH hududlari biznesining O‘zbekistonga safarlarini tashkil etishga kelishib olindi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

## YANGI YONDASHUVLAR

## “MAHALLA YETTILIGI” odamlar hayotini o‘zgartirmoqda

Mahallalarda hamma ish o‘z maromida davom etardi-yu, samarasi xuddi Ivan Krilovning masalidagiday aravani o‘rdak osmonga, baliq suvga, toshbaqa esa quruqlik sari torta boshlagandek to‘liq ko‘rinmayotgandi. Mahalla raisi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim edi. Ammo aniq vakolatga ega emasligi, “Mahalla beshligi”ning har biri beshta tashkilotdan maosh olishi gohida masalda bayon etilganday natija ko‘rsatardi.

Muvaffaqiyatning otasi ko‘p bo‘ladi, deganlaridek, qandaydir yutuqqa erishilsa, “beshlik”dagi xodimlarning hammasi bu haqda hisobotiga kiritishga, kamchiliklar haqida gapirmaslikka harakat qilishga o‘rganib qoldi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bunday boshboshdoqlikka barham berdi. Farmonda “mahalla yettilligi” har bir a‘zosi vazifasi, jumladan, mahalla raisining barcha faollarga rahbarlik qilishi, ish hamda vazifalar hamjihatlikda bajarilishi, ularning faoliyati asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi (KPI) bo‘yicha baholanishi belgilandi.

Davomi 2-beta

## Oliy ta‘lim odimlari

## RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS

## U qanday bo‘lishi lozim?

Bugungi kunda yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlashda ta‘lim, ilm-fan va amaliyotning o‘zaro integratsiyalashuvi jadal sur‘atlar bilan o‘tib bormoqda. Bunday rivojlanishni belgilovchi rag‘bat bilimiga asoslangan jamiyat uchun xos bo‘lgan yuqori malakali va tashabbuskor kadrlarga ehtiyojning kuchayishi hisoblanadi.

Oliy ta‘lim muassasalarining asosiy ish beruvchilar bilan o‘zaro hamkorligi har ikki tomonning maqsadlariga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Ushbu hamkorlik kadrlar buyurtmachilarining ta‘lim dargohi bilan birgalikda o‘quv dasturlarini shakllantirish va zarur o‘quv-laboratoriya uskunalarini bilan jihozlashda samarali ishtirok etish, bo‘ljak bitiruvchilar bilan

faol tanishish, ularni amaliyotga jalb qilish va mavjud muammolari bo‘yicha loyihalarda qatnashish imkonini beradi. Shu bilan birga, OTM talabalari ilg‘or jamoalar ish jarayoniga qo‘shilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish hamda o‘z bilim-ko‘nikmasini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Davomi 5-beta

## Nuqtayi nazar

## ANIQ HISOB-KITOB HAMDA TAHLIL

## maqsadga erishish asosidir

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimiz iqtisodiyotini hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, xususan, yalpi ichki mahsulotni 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazish belgilangan.

Albatta, ushbu maqsadlarga erishish aniq hisob-kitob va tahlil talab etadi. 2023-yilgi davlat dasturi doirasida iqtisodiy tarmoqlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar tufayli mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning ulushi 6 foiz oshdi. Lekin Strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun buning o‘zi yetarli emas. Shu bois, joriy yilda yalpi ichki mahsulotni kamida 6 foizga ko‘paytirib,

100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Prezidentimiz 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu masalalarga alohida e‘tibor qaratib, bir qator ustuvor vazifalarni belgilab bergan edi.

Davomi 4-beta

## YANGI NAMANGAN ulkan sanoat va industrial hududga aylanadi

## INSON QADRI UCHUN

Namangan zamonaviy va tarixiy imkoniyatlarga ega hududlar sirasiga kiradi. Jumladan, viloyatning hosildor bo‘z tuprog‘i, sersuvligi va mo‘tadil iqlimi aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, mevasabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik hamda dehqonchilik uchun yetarli resurslari mavjud. Boz ustiga turfa mineral va rudalarga boyligi, tog‘-kon sanoati, ishlab chiqarish, zargarlik, hunarmandchilik rivojlangani hamda qo‘shni davlatlar bilan chegaradoshligi sanoat va turizm sohasini jadal taraqqiy ettirish uchun nihoyatda qulay.

Davlatimiz rahbari yaqinda Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida hali to‘liq ishlatilmagan ana shu manbalardan innovatsion yondashuvlar asosida, mahalliy tajribalarga tayangan holda samarali foydalanishga e‘tibor qaratdi. Tashrif doirasida xususiy sektorlar faoliyatini yanada kengaytirish, mahallalarni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, jumladan, oliy ta‘lim muassasalariga birlashtirish tashabbuslari ilgari surildi.

Prezidentimiz hududlarga tashrifi chog‘ida zamonaviy innovatsiyalar bilan birga, mahalliy tajribaga tayanib ish tutish zarurligini uqtiradi. Mazkur tashrifda ham Sayxunobod tajribasi asosida Namangandagi 4 ming xonadonni oilaviy tadbirkorlikka muntazam jalb etish belgilab berildi.

Buning natijasida to‘rt ming oilaning daromadini oshirish, a‘zolarini ish bilan ta‘minlash imkoniyati vujudga keladi. Ularga kasb-hunarga oid moliyaviy, texnikaviy ko‘mak, maslahat va boshqa ko‘rinishda o‘quv-uslubiy, amaliy yordam berish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi. Bu muhim vazifalar bizdan ta‘lim sohasining hayotiyligini oshirish, nazariya va amaliyotni uyg‘un olib borishni talab qiladi.

Bundan tashqari, 35 ming xonadonga gulchilik, issiqxonachilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik, uzumchilik, qulupnay va kartoshka yetishtirish bo‘yicha imtiyozli kredit ajratishga ko‘rsatma berildi. Bunday keng ko‘lamli kreditlash amaliyoti shunga

munosib darajali kadrlar yetishtirishni talab qilishi tabiiy hol. Bugun ushbu sarmoya to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, kadrlar ko‘nikmasi asosida nazorat qilinmasa, kreditlarning risk darajasi oshib ketishi turgan gap.

Yaponiya inqirozdan keyin asosan, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitishga e‘tibor qaratgan. Natijada kunchiqar yurtda ijtimoiy muhit barqarorlashdi. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik, xo‘jalikni samarali yuritish, yoshlarni mehnatkash hamda hunar o‘rganishga moyil qilib tarbiyalash uchun mustahkam baza yaratildi. Shu ma‘noda, davlatimiz rahbarining xonadonbay ishlash va aholini kasb-hunarga jalb qilish bo‘yicha ko‘rsatmasi yapon tajribasiga monand ekani bilan taraqqiyotga ishonchni mustahkam-

laydi. Bu ijtimoiy chora-tadbirlar viloyatda hunarmandchilik, zargarlik, ishlab chiqarish, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirish, ayniqsa, texnikumlar bazasini kengaytirish hamda texnoparklar tashkil qilish jarayonini jadallashiradi.

Namanganliklar bilan uchrashuv asnosida hududda davlatga tegishli oltita va xususiy uchta oliy ta‘lim muassasasi faoliyat yuritayotgani, ular orasida tayanch OTM sifatida Namangan davlat universitetining xalqaro jarayonlarga integratsiyasini ta‘minlash, amaliyotini qayta ko‘rib chiqish taklifi ilgari surildi. Endi mazkur o‘quv muassasasidagi 71 ta‘lim yo‘nalishi 56 taga qisqartiriladi.

Davomi 3-beta











